DOYRA-O’ZBEK MUSIQIY IJROCHILIGIDA USUL BERUVCHI ENG ASOSIY CHOL’G’U

Ismoil Rustamov
Farg`ona davlat universiteti Vokal va cholg`u ijroshiligi kafedrasi o`qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7998822

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o`zbek milliy cholg`ularini yosh avlodga targ’ib qilish jarayonlari borasida fikr yuritiladi. Shuningdek bugungi kunda doyra cholg`usi ijrochiligi o’zbek milli musiqa ijrochiligida muhimligi ko’rsatib o’tilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Doira cholg`usi, o`zbek xalq milliy cholg`ulari, ijrochilik mahorati, ustoz-shogird an`anasi, mahalliy uslublar, doira usullari.*

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Musiqa san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir”

Inson madaniyatini shakllantiruvchi omillardan biri – milliy musiqa bo‘lib, milliy musiqaning aks etishida milliy cholg‘ularning xizmati beqiyosdir.

Milliy cholg‘ularni o‘rganish insonga nima beradi?

– Milliy ruhiyat, kuchli iroda, nozik did, nafis his-tuyg‘ular, mehr-muhabbat, orzu-umid, go‘zallik, ezgulik, osoyishtalik, ko‘tarinki ruh beradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, sabr-toqatni kuchaytiradi, ma’naviyatni yuksaltiradi, hayotni sevishga o‘rgatadi. Milliy cholg‘ularni ijro etilishi tom ma’noda insonni tarbiyalaydi.

Biror bir cholg‘u asbobni o‘rganish insondan o‘ziga xos qobiliyat talab etadi. Biroq, ushbu qabiliyat bo‘lmagan taqdirda ham har bir insonda boshlang‘ich ko‘nikma hosil bo‘ladi va cholg‘ularning yoqimli ovozi kishini o‘ziga jalb etish orqali hech bo‘lmaganda tinglash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa, insonni loqaydlikdan asraydi.

Xalqimizda “Bola boshdan” degan naql bor. Shunday ekan, bolalarni tarbiyalashda milliy musiqiy cholg‘ularimizni ularga o‘rgataylik, hayotiga hamroh qilaylik.

Muhtaram yurtboshimiz yuqoridagi fikrlarni o‘zlarining 02.02.2022 PQ-112-sonli qarorida aks ettirib, qaror ijrosini amalga oshirishga doir qator ko‘rsatmalar berdilar.

“Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi” oliy ta’lim professor o’qituvchilarida juda katta ma’sulyat yukladi.

Doyra-o’zbek musiqiy ijrochiligida usul beruvchi eng asosiy chol’g’u hisoblanadi, nafaqat ansambl yoki orkestr ijrosini, hatto ko’pgina yakka cholg’uchilar ijrosini ham tinglash

qiyin. Bunfan tashqari, doyra O’zbekistonda eng ko’p tarqalgan musiqiy chol'g’ulardan biri hisoblanadi. Doyrani xalq ichida keng tarqalishida Usta Olim Komilov, G’ofur Azimov, Qaxramon Dadayev, aka-uka Islomovlar, Odil Kamolxo’jayev, Ilhom Ikromov kabi qator doyrachilarning xizmatlari katta.

O’zbek doyrasi sadolarining chet el sahnalarida sadolanishi va o’zining mohirona ijrosi bilan jahon tomoshabinlari yuraklarini zabt etgan ustoz san’atkor Usta Olim Komilovning doyra cholg’usi ijrosi sir asrorlarini nafaqat amaliy, balki nazariy-ilmiy jihatdan o’quv qo’llanma va darsliklar ko’rinishida xalqimizga yetkazgan ustoz san’atkor Dilmurod Islomov xisoblanadi. Zamonamiz doyra maktabiga yangicha nafas baxsh etgan ustoz san’atkor Dilmurod Islomov o’z atrofida keyinchalik kasbiga sadoqatli shogirdlar tarbiyalab xalqimiz xizmatiga safarbar etdi.

Xozirgi kunda ham doyra ijrochilik maktabi bir qator mualliflik uslublar bilan boyidi. Ijrochilik amaliyotida bu uslublarni yaratgan ustoz sozandalar elga tanildilar. Mavjud usullarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda Ushbu san`atni zamonamizga mos holda talqin qilish, o‘zining bor kuchini sarf qilib rivojlantirishi lozim. O‘tgan davrda yashab ijod etgan san’atkorlar o‘zlaridan oldingi san’atkorlar malini puxta o‘rganishga katta ahamiyat berganlar, o`zlashtirgan bilimlarini esa, keyingi avlod shogirdlariga o‘tkazganlar. Bu faqat doyrachilarning emas, balki barcha o`zbek san`ati namoyomdalarining uslubi bo`lmish “Ustoz-shogirt” an’anasidir. Mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib, kelajak avlodning o‘tmishga xos tarzda kamol topishi, bu barkamol avlod tarbiyasidagi asosiy vazifarlardan desak, mubolag‘a bo‘lmas.

Bugungi davrda taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining yangidan-yangi namunalari joriy etilayotgan bir paytda o‘zbek milliy zarblarini turli cholg‘ular, elektron vositalar va mavjud cholg‘u sozlarda tarannum etish imkoniyatlari ochilmoqda. O‘zbek usullarini zamonaviy texnika vositasida doyraning jonli sadosini tarannum etish yosh shijoatkor san’atkorlarimizning iodiy munosabatiga bog‘liq.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori.
2. R. Samadov (2022). DOIRA CHOLG‘USINING QADIM VA ZAMONAVIY HAYOTDAGI IJRO TALQINI. Science and innovation, 1 (C6), 251-253. doi: 10.5281/zenodo.7190596
3. Sayfitdinov T. Doira ijrochiligi san’ati. Oq‘uv qo‘llanma. «FAYLASUFLAR». - Toshkent: 2020.
4. Фаттоҳхон Мамадалиев “Миллий мусиқа ижрочилиги” рисола. Т.,2001й.
5. Насритдинова, Мадина Нуруллаевна (2022). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСЦЕЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С ПАТОЛОГИЕЙ, СВЯЗАННЫХ С ГИПОКСИИ, ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 385-393.
6. Насритдинова, М. Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИЯТГА НИМА УЧУН КЕРАК?. *Science and innovation*, *1*(Special Issue 2), 577-580.
7. Nasritdinova, M. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING

PEDAGOGIK MODELI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(2), 199-204.

8. Насритдинова, М. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK MUSIQA TA’LIMI OQITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA’MINOTI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(4), 241-246.
9. Насритдинова, М. Н. (2023). УСТОЗ МУХТОР АШРАФИЙ МАҲОРАТЛИ ПЕДАГОГ СИЙМОСИДА ШОГИРДЛАРИ ХОТИРАСИДА МАНГУ БАРҲАЁТ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(2), 303-305.
10. Nurullayevna, N. M. Turg'unboyeva Muhlisa.(2022). THE ROLE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN CREATING A NEW UZBEKISTAN ENLIGHTENED SOCIETY. BEST SCIENTIFIC RESEARCH, 1 (1), 238-241.
11. Jo’Rayev Xamidjon, & Madina Nasritdinova (2022). DOIRA CHOLG’USIDA IJRO MAHORATINI YUKSALTIRISH (BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARI MISOLIDA). Science and innovation, 1 (C2), 26-28. doi: 10.5281/zenodo.663646
12. Мамазияев, Х. А. Ў. М., & ТАДРИЖИ, М. Ч. SAI. 2022.№ С3. *URL: https://cyberleninka. ru/article/n/ma-om-sanatida-musi-a-chol-ularining-tadrizhi (дата обращения: 05.10. 2022)*.
13. Мамазияев, Хуршиджон Аъзамжон Ўғли (2022). МАҚОМ ИЖРОЧИЛИГИДА ЧОЛҒУЛАРНИНГ АЛОМАТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 429-435.
14. X. Mamaziyaev (2022). ТЎЙ МАРОСИМ ҚЎШИҚЛАРИ (НИКОҲ ТЎЙ МАРОСИМИ ҚЎШИҚЛАРИ ТАҲЛИЛИ). Science and innovation, 1 (C6), 190-199. doi: 10.5281/zenodo.7178247
15. A. Abdusattorov (2022). DIMITRIY DIMITRIYEVICH SHOSTAKOVICH IJODIDA POLIFONIYA. Science and innovation, 1 (B6), 430-432. doi: 10.5281/zenodo.7164517
16. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
17. Абдисатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(10-2), 602-605.
18. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, *2*(11), 28-30.
19. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *1*(1), 196-199.
20. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(05), 245-250.
21. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI O’RNI. Scientific progress, 3 (2), 841-845.

22. Rustamov, I. (2022). DOYRA CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, *1*(B6), 456-460.

23. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *5*, 74-77.

24. Rustamov, Ismoil (2023). DOIRA CHOLG‘U IJROCHILIGIDA IJROVIY USULLARNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4), 74-79.

25. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. Scientific progress, 2(2), 1313-1315.
26. Namozova, D. (2022). BO ‘LAJAK MUSIQA O ‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O ‘QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. Science and innovation, 1(B6), 942-950.
27. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 314-323.